

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

**X.M. AKRAMBAYEV**

**“GLOCK-17” PISTOLETIDAN AMALIY  
O‘Q OTISH TARTIBI VA QOIDALARI**

*O‘quv-uslubiy qo‘llanma*

**TOSHKENT–2024**

*O‘quv-uslubiy qo‘llanma Malaka oshirish instituti Ilmiy kengashining  
2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_” -sonli yig‘ilish muhokamasidan  
o‘tkazilgan va ma’qullangan.*

**Muallif:**

IIV MOI Jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi,  
podpolkovnik, p.f.b.f.d. (PhD)

**X.M. Akrambayev**

**Taqrizchilar:**

IIV MOI Jangovar tayyorgarlik sikli boshlig‘i, podpolkovnik, dotsent

**A.T. Alijonov**

IIV Akademiyasi jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida dotsenti,  
podpolkovnik, p.f.d. (DSc), dotsent

**A.A. Kochkarov**

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tezkor vazifalarni bajaruvchi  
safariy batalyoni komandiri, podpolkovnik

**N.Q. Turdiv**

**Akrambayev X.M. “Glock-17 ” pistoletidan amaliy o‘q otish tartibi  
va qoidalari:** O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi  
IIV Malaka oshirish instituti, 2024. – 60 bet.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmada “Glock-17 ” pistoletining tuzilishi, jangovar xususiyatlari, qismlarga ajratish va qayta yig‘ish, undan o‘q otish tartibi hamda xizmat ko‘rsatish masalalari yoritilgan.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalarida boshlang‘ich tayyorlash, maxsus kasbiy tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha tahsil olayotgan tinglovchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlarining mustaqil o‘rganishi uchun mo‘ljallangan.

**UDK \_\_\_\_\_**

© O‘zbekiston Respublikasi IIV MOI, 2024 y.

© Xasan Akrambayev, 2024 y.

## KIRISH

*Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, ularning professional salohiyatini, jangovar tayyorgarligini zamon talablari asosida yuqori bosqichga ko'tarish biz uchun doim ustuvor yo'nalishlar qatorida.*

**Sh.M. MIRZIYOYEV**

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarida ommaviy noroziliklar, ekstremizm xavfining ortayotgani, ichki nizolar kuchayib borayotgani, mintaqalarda qurolli mojarolar davom etayotgani O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga, oldimizda paydo bo'layotgan tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga doimo tayyor bo'lish va hushyorlikni oshirishni talab etadi<sup>1</sup>.

Barchamiz yaxshi bilamizki, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilish, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan.

Zero, ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish bo'yicha keng qamrovli va ko'p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari tomonidan ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, vokzallar, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida xizmatni o'tashda fuqarolarning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishi, ularning sha'ni va qadr-qimmatining hurmat

---

<sup>1</sup> *Mirziyoyev Sh.M.* O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // Postda. 2018. – 3-son. – B. 5.

qilinishi, muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilinishi ta'minlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ichki ishlar organlari xodimlarida yuksak professional bilim, malaka, aqliy salohiyat, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish talab etiladi.

Bugungi kunda xodimlarni o'qitish, ularning kasb mahoratini va malakasini oshirish ishlari mutlaqo yangicha asosda tashkil etilib, mas'uliyatlilik, halollik va bilimdonlik kabi asosiy xislatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari xalqimizning turmush faravonligini oshirish, aholini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan. Ushbu faoliyatni samarali amalga oshirish, birinchi navbatda, IIO xodimlari tomonidan zamonaviy o'qotar qurollarni qo'llashining huquqiy asoslari va ulardan foydalanish tartibini bilish bilan bog'liqdir.

Ichki ishlar organlarida o'qotar qurollar alohida o'rin egallaydi. Binobarin, ichki ishlar organlari xodimlari zamonaviy o'qotar qurollarni qo'llash bo'yicha doimiy shug'ullanish orqali xizmat bilan bog'liq psixologik mahorat va malakalarini takomillashtirib boradilar. Ulardan xizmat paytida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda o'qotar qurollarni mohirlik bilan qo'llash talab etiladi. Bularning hammasi xodimlarning o'qotar qurol bilan bajariladigan usullarni mukammal bilishini va ularni bajarish texnikasini o'zlashtirish uchun doimiy ravishda mashq qilishini taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga zamonaviy o'qotar qurollardan mohirona va samarali foydalanishni, quroldan foydalangan vaqtda xavfsizlik choralariga rioya qilishni, qisqa muddatlarda nishonni aniq zabt etishni o'rgatish va qurolga bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish uchun IIV Malaka oshirish institutida "O'q otish tayyorgarligi" dan ma'ruza, seminar va amaliy o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. "O'q otish tayyorgarligi" har bir xodimning jangovar tayyorgarligini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada ichki ishlar organlarida hozirda qo‘llaniladigan zamonaviy o‘qotar qurol “Glock-17 ” pistoletining tarixi, tuzilishi, qo‘llanilish maqsadi, jangovar xususiyatlari, qismlarga ajratish va qayta yig‘ish tartiblari hamda ularga xizmat ko‘rsatish haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, asosiy urg‘u mashqlarni amaliy bajarishga yo‘naltirilgan.

Ushbu qo‘llanma barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlariga tavsiya etiladi.

## **I BOB. “GLOCK-17” PISTOLETINING YARATILISHI, JANGOVAR XUSUSIYATLARI, ASOSIY QISMLARI VA MEXANIZMLARI**



**Avstriyalik muhandis va tadbirkor, o‘qotar qurollar ishlab chiqaruvchi kompaniya asoschisi Gaston Glock (1929–2023)**

### **“Glock-17” pistoletining yaratilishi**

Gaston Glock 1929-yil 19-iyulda Avstriyaning Vena shahrida tug‘ilgan. U Ikkinchi jahon urushi oxirida o‘smir sifatida Vermaxtga yuborilgan va muhandislik mutaxassisligi bo‘yicha maktabni tugatgan.

1963-yilda Vena yaqinidagi Deutsch-Vagram shahriga asos solgan Glock dastlab butunlay tinch maqsadlarda mashinalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Keyinchalik harbiy mahsulotlar – jangovar pichoqlar, o‘rnatish asboblari, pulemyotlar uchun ehtiyot qismlar, qo‘l granatalari va pulemyot kamarlarini ishlab chiqaruvchi sifatida qayta o‘qitilgan.

“Ferlach” oliy qurol texnik maktabini tamomlagan Glock qurol sohasida o‘zini sinab ko‘rishga qaror qilgan. 1970-yillarning o‘rtalarida u o‘z dizaynerlari oldiga og‘irligi past, yuqori ishonchli otish kuchiga ega, iloji boricha ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun qulay bo‘lgan ideal pistoletni yaratish vazifasini qo‘ydi.

Natijada Gaston Glock Avstriya armiyasi tanlovi uchun yangi pistolet “Glock-17” deb nomlangan 9 mmlı pistolet namunasini taqdim etdi. 1982-yil may oyida sinov natijalariga ko‘ra, “Glock-17” pistoleti Avstriya Qurollı kuchlari tomonidan P80 belgisi ostida qabul qilindi (*1-rasm*).



*1-rasm. 9x19 kalıbrlı “Glock-17” pistoleti.*

Hozirgi kunda “Glock-17” pistoletlarini ishlab chiqarish davom ettirilmoqda. U o‘z-o‘zidan o‘qılandigan pistoletlar orasida eng ishonchlı va oddiy hisoblanadi.

Avstriyaning “Glock” kompaniyasi pistoletlari haqida deyarlı hamma narsa aytilgan. Umumiy o‘qotar qurollarga, xususan, qisqa stvolli qurollarga ozmi-ko‘pmi qiziqqan har bir kishi “Glock” eng ommabop va ishonchlı pistolet sifatida huquq-tartıbot idoralari va qurollı kuchlar tomonidan doimiy talabga ega ekanligini yaxshi biladi. “Glock” pistoletlarini eng qiyin ish sharoitida ham qo‘llashning ishonchliligi, jangovar o‘q otish va o‘q otish uchun yetarli aniqlilik kabi xususiyatlarning ajoyib kombinatsiyasi tufaylı dunyodagi eng yaxshi pistolet, deb hisobshadi.

“Glock” yuqori tezlikka ega, qo‘llashda xavfsız va qulay. Pistoletni yelkaga osib olinadigan qurol g‘ilofida yoki kamardagi qurol g‘ilofida, shuningdek, kiyimda yashirin ravishda olib yurish mumkin. Unga texnik xızmat ko‘rsatish qulay bo‘lib, qismlari oson va tez almashuvchan, po‘latdan yasalgan qismlari juda yuqori kuch va qarshilikga bardoshlıdir.

1990-yillarning oxirida Isroil politsiyasining maxsus bo‘linmasi Yamanda bo‘lib o‘tgan musobaqada yuqori o‘rinni egalladi. Shundan so‘ng Isroil mudofaa kuchlarining ba‘zi maxsus kuchlari Sig Sauer P226 va Sig Sauer P228 qurollari o‘rniga “Glock-17” pistoletini qabul qilishdi. Hozirda “Glock” pistoletlari dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlarida armiyalar va turli huquqni muhofaza qilish organlarida qo‘llaniladi.

1986-yilda pistoletlar Avstriyadan AQShga olib kirila boshlandi. “Glock” pistoletlarini qabul qilgan birinchi huquqni muhofaza qilish idorasi Kanzas shtatidagi Kolbi politsiya bo‘limi bo‘lib, Minnesota shtatining Sent-Pol shahriga yetkazib berilgan.

Mayamidagi politsiyachilar tomonidan Avstriya pistoletlari sinovi o‘tkazilgan. Qurol 18 metr balandlikdagi po‘lat va beton kameraga patron bilan tushganda ham hech qanday o‘zgarish bo‘lmagan. Qurol sho‘r suvda saqlangandan keyin ham yuqori tezlikda otilgan. Hech qanday kechikish bo‘lmagan. 45 daqiqa ichida undan 1000 ta patron uzluksiz otilgan. Ushbu sinovlardan so‘ng Mayami politsiya boshqarmasi “Glock” pistoletlarini xizmatga qabul qildi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlari qatori, mamlakatimizda ham “Glock-17” pistoleti keng tarqalmoqda. Hozirda u Ichki ishlar vazirligi maxsus bo‘linmalari tomonidan jangovar vazifalarini bajarishda qo‘llanib kelmoqda.

“Glock-17” pistoleti shaxsiy tarkibning hujum va himoya quroli bo‘lib, dushmanning jonli kuchini yaqin masofalarda yakson qilish uchun mo‘ljallangan.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari maxsus bo‘linmalarining xodimlari tomonidan qurollangan va o‘ta xavfli jinoyatchilarni qo‘lga olishda, garovga olingan fuqarolarni ozod qilishda va boshqa maxsus tadbirlarni o‘tkazishda foydalaniladi.

### **“Glock-17” pistoletining jangovar xususiyatlari**

“Glock-17” pistoleti nihoyatda ishonchli va qulay, yengil va bardoshli bo‘lib, oddiy dizaynga ega. U bigiz yoki mix yordamida bir daqiqadan kamroq vaqt ichida to‘liq qismlarga ajratilishi mumkin. “Glock-17” pistoletining muhim xususiyati shundaki, uning asosiy ramasi mexanik saqlagichi yo‘q, shuningdek, bir qator kichik qismlar yuqori quvvatli, issiqlikka bardoshli polimer plastmassadan yasalgan. Ikkinchi xususiyati esa uning xavfsizligidir.

“Glock-17” pistoletining asosiy ramasi, qo‘l dastagi va tepki halqasi bilan birgalikda yuqori quvvatli polimer materialdan ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu pistoletning mustahkamligini ta‘minlaydi. Yo‘naltiriluvchi ramasi harakatlanadigan po‘lat zatvor qobig‘i po‘lat qo‘shimchalari bilan kuchaytirilgan.



Tepki halqasining oldidagi egilish shakli ikki qo'l bilan otish paytida ikkinchi qo'lning ko'rsatkich barmog'ini joylashtirish uchun mo'ljallangan. Bu esa ikki qo'l bilan otish paytida pistoletning barqarorligini ta'minlaydi


“Glock-17” pistoletining o'qdoni quti shaklida bo'lib, unga 17 ta o'q-dori ikki qator, shaxmat taxtasi shaklida oson joylashtiriladi. Pistoletdan o'zining o'qdonidan tashqari 19 ta va 33 ta sig'imli o'qdonlardan ham foydalanish mumkin.

O'qdonni osongina chiqarish uchun o'qdon tutkichi qo'yib yuboruvchi skoba va qo'l dastagining ulanish joyida joylashtirilgan.

Pistoletdan o'q otish vaqtida o'qdonda o'q tugashi bilan zatvor ramasi orqa holatida zatvor tutkichida qoladi, zatvor ramasini oldingi holatiga qaytarish uchun zatvor tutkichi asosiy ramaning chap tomonida o'qdon tutkichining yuqorisida bosish uchun qulay joylashgan.

“Glock-17” pistoletning zarba beruvchi mexanizmi zarba berish turtkichi 3 ta avtomatik saqlagich yordamida xavfsiz harakatchan hisoblanadi, pistoletning qayta o'qlanishida turtkich jangovar holatga keladi va avtomatik saqlagich yordamida bloklanadi. Turtkich pistoletning tepki halqasi oxirigacha to'liq bosilgandan so'ng oldinga harakatlanishni boshlaydi. Bunda prujina almashishi orqali harakat nazoratga olinadi. Tepki halqasi oxirigacha bosilishi birinchi va oxirgi o'qning otilishida bir xillikni ta'minlaydi, bu esa barcha otilgan o'qning nishonga aniq borishiga ijobiy yondashadi. Pistolet 2 metr balandlikdan qattiq jismga tushib ketsa, xavfsiz o'q otish samaradorligi saqlanib qoladi.

“Glock-17” pistoleti suv ostida otish uchun kuchaytirilgan qaytaruvchi prujina bilan jihozlangan, suvda samarali ishlashi oddiy qulay avtomatikligi va stvolning ixchamliligi pistoletning kuchaytirilgan qaytaruvchi prujinasi kuchli qarshilikka bardosh bera oladi va zatvorni jangovar holatga keltiradi. Suvning yuqori zichligidan o'qning uchish tezligi qisqa vaqt ichida pasayadi, o'qning uchish samaradorligi 2 metrdan oshmaydi (*2-rasm*). Lekin pistoletning samaradorligi pasayishiga qaramay, uning tuzilish strukturasi yuqori ishonchliligi va mexanizmlarini chidamliligi jangovar xususiyatlarini saqlab qoladi.



*2-rasm. "Glock-17" pistoletining suv ostida otilishi.*

"Glock-17" pistoleti qumdan, loydan, suvdan chiqarilganda ham jangovar xususiyatlarini yo'qotmaydi va har qanday sharoitda undan o'q otish mumkin.

"Glock-17" pistoleti "Glock" o'qotar qurollar ishlab chiqarush kompaniyasi tomonidan eng qattiq sinovlardan o'tkazilgan va jangovar qobiliyatini yo'qotmagan. Shu bois "Glock-17" pistoleti "Ginnes rekordlari" kitobiga kiritilgan.

*"Glock-17" pistoletining taktik-texnik tavsifi*

*1-jadval*

<b>T/r</b>	<b>"Glock-17" pistoletining xususiyatlari</b>	<b>Asosiy ko'rsatkichlari</b>
1	Kalibri	9 mm
2	O'qning boshlang'ich uchish tezligi	360 m/s
3	Jangovar otish tezligi	35–40 o'q/daqiqasiga
4	O'qning jarohatlash masofasi	375 m

5	Mo'ljalga olib otish masofasi	50 m
6	Eng samarali otish masofasi	20–25 m
7	Pistoletning patronsiz og'irligi	710 gr
8	Pistoletning patronlar bilan og'irligi	910 gr
9	Pistolet uzunligi	202 mm
10	Zatvor ramasi uzunligi	186 mm
11	Stvol uzunligi	114 mm
12	Pistolet balandligi	138 mm
13	Pistolet kengligi	30 mm
14	Kesiklar soni o'ng tomonli	6 ta o'ng tomonlama
15	ikki qatorli o'qdon sig'imi	17, 19 va 33 ta
16	Patron	9x19
17	Ishlash haroratining diapazoni	+40° dan – 200° gacha
18	Patron og'irligi	11,7 gr
19	O'q og'irligi	8 gr
20	Patron uzunligi	19,7 mm
21	Gilza uzunligi	19 mm lyuger

### **“Glock-17” pistoletining asosiy qismlari va mexanizmlari**

“Glock-17” pistoleti asosiy beshta qism va mexanizmdan iborat.

1. Zatvor: nishonga olish moslamasi, gilza uloqtirgich mexanizmi, turtkich mexanizmi bilan.

2. Stvol.


3. Qaytaruvchi prujina.

4. Asos ramasi: qo'l dastagi, zatvor tutkichi, tepki halqasi va uloqtiruvchi mexanizmi bilan.


5. O'qdon.

Stvol patron uchun kamerasi (bundan buyon matnda *patrondon* deb ataladi) bilan 40° issiqlik bilan ishlov berilgan qotishma po'latdan yasalgan.

Qaytaruvchi mexanizm ikki prujinali va yo'naltiruvchisi plastikli diametri 1,3 sm, uzunligi 8,2 sm, og'irligi 21 gr, materiali plastik va po'latli.




Ikki qatorli o'qdon 4 qismdan iborat (3-rasm).



**3-rasm.** 30-o'qdon prujinasi; 31-o'qdon ostki qopqog'i va uning qulfi;  
32-o'qdon qutisi; 33-uzatgich.

Pistoletning qo'l dastagi asosiy ramaning bir qismi hisoblanib, unga katta sig'imli ikki qatorli o'qdon joylashtiriladi. Bu esa asosiy ramaning kichik o'lchamlari qulay shaklga ega bo'lishini ta'minlaydi. Dastakning egilish burchagi stvol kanalining o'qida  $180^\circ$  ni tashkil etib, dastakning old tomonida barmoqlar uchun uchta chuqurcha va yon tomonida katta barmoq uchun tiragich qilingan. Qo'l dastagi ichida o'qdon tutkich bilan qotiriladi, uni chiqarish uchun dastakning chap tomonida skoba yonida tugma joylashtirilgan. Tugmani bosib o'qdon osongina chiqariladi.


Zatvor quyidagi 15 ta qism va mexanizmlardan iborat (4-rasm).



**4-rasm.** 1-zatvor; 2-stvol; 3-qaytaruvchi prujina; 4-turtkich; 5-turtkich korpusi; 6-turtkich prujinasi; 7-turtkich prujinasining fiksatori; 8-turtkich saqlagichi; 9-turtkich saqlagichining prujinasi; 10-uloqtiruvchi; 11-uloqtiruvchini itaruvchi mexanizm; 12-uloqtiruvchini itaruvchi mexanizm prujinasi; 13-uloqtiruvchini itaruvchi mexanizm prujinasining tayanchig'i; 14-zatvor orqa qopqog'i; 15-nishonga olish moslamasi, ko'zlagich va mushka.

Asos ramasi qo'l dastagi, zatvor tutkichi, tepki halqasi va uloqtiruvchi mexanizmi bilan 14 ta qism va mexanizmlardan iborat (5-rasm).

Asos ramasi ostida nishonni ko'rsatuvchi lazer, fonar va boshqa moslamalarni o'rnatish uchun yo'naltirgich qilingan.



**5-rasm.** 16-asos ramasi; 17-o'qdonni chiqarib yuboruvchi prujina; 18-o'qdonni chiqarib yuboruvchi tutkich tugmasi; 19-zatvor qulfining prujinasi; 20-zatvor qulfi; 21-bloklab turuvchi moslama; 22-reflektorli blok; 23-ulgich; 24-tepki halqasining prujinasi; 25-tepki halqasi tortqichi bilan; 26-zatvor tutkichi prujinasi bilan; 27-tepki halqasini ushlab turuvchi shtift; 28-zatvor tutkichini ushlab turuvchi shtift; 29-bloklab beruvchi moslamani ushlab turuvchi shtift.

## **II BOB. “GLOCK-17 ” PISTOLETINI QISMLARGA AJRATISH VA QAYTA YIG‘ISH, UNGA XIZMAT KO‘RSATISH**

### **“Glock-17” pistoletini qismlarga ajratish va qayta yig‘ish**

Pistoletni qismlarga ajratish to‘liqsiz yoki to‘liq shaklda amalga oshiriladi.

Pistoletni ko‘zdan kechirish, tozalash va moylash uchun u to‘liqsiz qismlarga ajratiladi.

Pistolet yomg‘ir-qor, loy, suv tagida qolganda yoki kuchli ifloslanganda, uni qayta tozalash va ta‘mirlash maqsadida to‘liq qismlarga ajratiladi.

Pistoletni tozalash maqsadida qismlarga ajratish va yig‘ish uchun stol ustiga mato yoziladi va qismlarga ajratish amalga oshiriladi: qismlari va mexanizmlari ketma-ketlikda stol ustidagi matoga qo‘yiladi. Pistoletni yig‘ishda uning qismlaridagi raqamlariga e‘tibor beriladi, ya‘ni raqamlar mos kelishi kerak.

Dala sharoitida pistoletni tozalashga to‘g‘ri kelsa, yerning tekis joyi tanlanadi va toza mato solinadi, shundan so‘ng qismlarga ajratiladi.


### ***“GLOCK-17” pistoletini noto‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish***

Pistoletni noto‘liq qismlarga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) pistolet ko‘zdan kechiriladi;
- 2) pistoletdan o‘qdon ajratiladi;
- 3) pistolet patrondoni tekshiriladi;
- 4) zatvor pistolet asosiy ramasidan ajratiladi;
- 5) zatvordan qaytaruvchi prujinasi ajratiladi;
- 6) zatvordan stvol ajratiladi.

1. Pistoletni tekshirib olishda u har tomonlama ko‘zdan kechiriladi, xavfsiz tomonga qaratilib, nishonga olib ko‘riladi. Bexosdan chiqib ketgan o‘q sizga va boshqalarga zarar yetkazmasligi uchun barmoqni tepki halqasining tashqarisida ushlaymiz.

1.1. Pistoletning zatvor tutkichi, shtiflari, o‘qdonni bo‘shatib beruvi tugmasi ko‘zdan kechiriladi (6-rasm).



*6-rasm. "Glock-17" pistoletini ko'zdan kechirish.*

1.2. Pistoletning zatvor orqa qopqog'i ko'zdan kechiriladi (7-rasm).



*7-rasm. "Glock-17" pistoletini ko'zdan kechirish.*



1.3. Pistoletning old tomonidan stvol ko‘zdan kechiriladi (8-rasm).



*8-rasm. "Glock-17" pistoletini ko‘zdan kechirish.*

1.4. Pistoletning ko‘zlagichi va mushkasi ko‘zdan kechiriladi (9-rasm).



*9-rasm. "Glock-17" pistoletini ko‘zdan kechirish.*



2 Pistoletdan o'qdonni ajratish. Pistolet o'ng qo'l bilan ushlanadi va bosh barmoq bilan qo'l dastagida tepki halqasining yonida joylashgan o'qdonni chiqarish tugmasi bosiladi, o'qdon tutkichdan bo'shab chiqadi va chap qo'l bilan o'qdon olinadi (10-rasm).



**10-rasm.** "Glock-17" pistoletidan o'qdonni ajratilish.

### 3. Patrondonni tekshirish.

3.1. Pistolet xavfsiz tomonga qaratilib, o'ng qo'lda ushlanadi. Chap qo'lda zatvor old qismidan ushlab orqa tomonga tortiladi va o'ng qo'l bosh barmog'i yordamida zatvor tutkichiga patrondon ko'rinadigan holatida to'xtatiladi, patrondon ko'zdan kechiriladi (*11-rasm*).



*11-rasm. "Glok-17" pistoletining patrondonini tekshirish.*

3.2. Patrondonda patron yo'qligiga ishonch hosil qilgandan so'ng zatvor tutkichdan qo'yib yuboriladi va asl holatiga qaytariladi, tepki halqasi bosiladi (*12-rasm*).



*12-rasm. "Glok-17" pistoletining tepki halqasini bosish.*

4. Zatrovni pistolet asosiy ramasidan ajratish:

4.1. Zatrovni asosiy ramadan ajratish uchun pistolet o'qlanmagan bo'lishi kerak, uning tepki halqasi orqaga qaytgan bo'lishi shart (13-rasm).



*13-rasm. "Glok-17" pistoletining o'qlanmagan holati.*


4.2. O'ng qo'l bosh barmog'i bilan qo'l dastagining orqasiga qolgan to'rtta barmoq zatvor orqa qismining ustki qismiga qo'yiladi (14-rasm).



*14-rasm. "Glok-17" pistolet zatvorining orqasiga ushlash holati.*



4.3. Zatvor ozgina orqaga (taxminan bir santimetrdan oshmagan masofaga) tortiladi, bunda zatvorning qulfi bo‘shatiladi (15-rasm).



*15-rasm. “Glok-17” pistoletining zatvorini orqaga tortish holati.*


4.4. Chap qo‘lda pistoletning asosiy ramasida joylashtirilgan zatvor qulfi pastga tortiladi (16-rasm).



*16-rasm. “Glok-17” pistoletining zatvor qulfini pastga tortish holati.*




4.5. Zatvor oldinga surib boriladi (17-rasm).



*17-rasm. "Glok-17" pistolet zatvorini oldinga surish holati.*


4.6. Zatvor pistoletning asosiy ramasidan bo'shatiladi (18-rasm).



*18-rasm. "Glok-17" pistoletning asosiy ramasidan zatvorni bo'shatib olish holati.*


5. Zatvordan stvol va qaytaruvchi prujina ajratiladi.

Qaytaruvchi prujinani zatvordan ajratish. Qaytaruvchi prujina o'ng qo'lda ushlanadi va ozgina oldinga suriladi va chiqarib olinadi. Qaytaruvchi prujinani ehtiyotkorlik bilan ajratish kerak, chunki u bosim ortida bo'ladi (19-rasm).



19-rasm. "Glock-17" pistoleti zatvoridan qaytaruvchi prujinaning ajratilishi.

6. Stvolni zatvordan ajratish. Stvolni o'ng qo'lda qalinlashtirilgan joyidan ushlab, ozgina oldinga suriladi, so'nra yuqoriga ko'tarilib, stvol ramasidan tortib olib ajratiladi (20-rasm).



20-rasm. "Glock-17" pistoleti zatvoridan stvolning ajratilishi.

### ***Noto'liq qismlarga ajratilgan pistoletni qayta yig'ish***

Tozalash va moylash ishlari tugaganidan so'ng pistoletni qayta yig'ish kerak. Pistoletni qayta yig'ish teskari tartibda amalga oshiriladi.

Zatvor chap qo'lda ichki qismi yuqoriga qaragan holda ushlanadi.

1. Stvol o'ng qo'lda qalinlashtirilgan joyidan ushlanadi, old tomoni bilan zatvorning old oynasiga tiqiladi va patron don o'z joyiga joylashtiriladi.

2. Qaytaruvchi prujina o'ng qo'lda ushlanadi, old tomoni stvol ostidagi prujina uchun mo'ljallangan tiragichga qo'yiladi, oldinga ozgina suriladi va prujinaning orqa tomoni o'z joyiga joylashtiriladi.

3. Zatvor chap qo'lda ushlanadi va orqasi bilan pistoletning asosiy ramasiga joylashtiriladi, zatvor orqaga tortilib joylashtiriladi, pistolet xavfsiz tomonga qaratiladi, tepki halqasi bosiladi.

4. Pistolet o'ng qo'lda, o'q don chap qo'lda ushlanadi va o'q don pistoletning qo'l dastagiga joylashtiriladi.

### ***Noto'liq qismlarga ajratilgan "Glock-17" pistoletini to'liq qismlarga ajratish***

Noto'liq qismlarga ajratilgan "Glock-17" pistoletini to'liq qismlarga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) zatvor to'liq qismlarga ajratiladi;
- 2) asosiy rama qo'l dastagi bilan to'liq ajratiladi.

Zatvordan qaytaruvchi prujina bilan stvol ajratilgandan so'ng qolgan qismlarini ajratish uchun yumshoq metalli bigiz kerak bo'ladi va zatvor quyidagi tartibda ajratiladi.

### ***Zatvorni to'liq qismlarga ajratish***

1.1. Zatvorning orqa qopqog'ini yechish uchun bigiz turtkich saqlagichi oldidagi oynaga tiqiladi, pastga bosiladi va oldinga suriladi (21-rasm).





*21-rasm. Zatvorning orqa qopqog'ini bo'shatish.*

1.2. Uloqtiruvchining itaruvchi mexanizmi otilib chiqmasligi uchun orqa qopqog'i oldinga bosib, ehtiyotkorlik bilan suriladi va chiqarib olinadi (22-rasm).



*22-rasm. Zatvorning orqa qopqog'ini ajratib olish.*



1.3. Zatvorning orqa qismidan jangovar prujinasi chiqarib olinadi (23-rasm).



*23-rasm. Jangovar prujinani chiqarib olish.*

4. Jangovar prujina qismlar (turtkich, korpus, prujina, fiksator)ga ajratiladi (24-rasm).



*24-rasm. Qismlarga ajratilgan jangovar prujina.*

5. Zatvorning orqa qismidan uloqtiruvchini itaruvchi mexanizm chiqarib olinadi (25-rasm).



*25-rasm. Uloqtiruvchini itaruvchi mexanizmning ajratilishi.*

6. Uloqtirgichning turtikichi qismlar (itargichi, prujinasi, tayanchig‘i)ga ajratiladi (26-rasm).



*26-rasm. Uloqtirgich turtkichining qismlarga ajratilgani.*

7. Turtkich porshenining saqlagichi bigiz bilan bosiladi va avval uloqtirgich so'nra turtkich saqlagichi ajratiladi (27-rasm).




*27 rasm. Uloqtirgich bilan turtkich saqlagichining ajratilishi.*



### ***Pistoletning asosiy ramasini to'liq qismlarga aratish***


Pistoletning asosiy ramasidan yumshoq metalli bigiz yordamida zatvor tutkichi, yopib beruvchi blok, tepki halqasi mexanizmi bilan ajratiladi.

2.1. Bloklab turuvchi moslamaning ushlab turuvchi shtifti asosiy ramaning zatvor tutkichi joylashgan tomonidan bigiz yordamida bosib chiqariladi (28-rasm).



***28-rasm. Bloklab turuvchi shtiftini chiqarish.***

2.2. Zatvor tutkichini ushlab turuvchi shtifti zatvor tutkichi joylashgan tomonidan bigiz yordamida bosiladi, bir vaqtning o'zida zatvor tutkichi tepaga, pastga qimirlatib turiladi, shtift bo'shagandan keyin u chiqarib olinadi (29-rasm).




***29-rasm. Zatvor tutkichini ushlab turuvchi shtiftni chiqarish.***

2.3. Zatvor tutkichi qo'lda osongina ajratiladi (30-rasm).



*30-rasm. Zatvor tutkichini chiqarib olish.*

2.4. Bloklab turuvchi moslamani tepaga tortib, u pistoletning asosiy ramasidan ajratiladi (31-rasm).



*31-rasm. Bloklab turuvchi moslamani chiqarib olish.*




2.5. Tepki halqasi bilan tepki mexanizmini ushlab turuvchi shtift qo'l dastagida joylashgan bo'lib, u bigiz yordamida qo'l dastagining chap yoki o'ng tomonidan bosib chiqariladi (32-rasm).



*32-rasm. Tepki halqasi bilan tepki mexanizmini ushlab turuvchi shtiftning chiqarilishi.*

2.6. Tepki mexanizmidan tepki halqasi bilan pistolet ramasidan yuqoriga tortib chiqarib olinadi (33-rasm).



*33-rasm. Tepki mexanizmidan tepki halqasini ajratish.*

2.7. Tepki mexanizmidan tepki halqasi, prujinasi, tortkich ajratiladi (34-rasm).



34-rasm. 1-tepki mexanizmi, 2-tepki, 3-prujina, 4-tortkich.

***“Glock-17” pistoleti o‘qdonini qismlarga ajratish va qayta yig‘ish***

“Glock-17” pistoleti o‘qdonini qismlarga ajratish quyidagicha amalga oshiriladi.

1. O‘qdonning ostki qismidagi qulfi bigiz yoki biron bir uchli jism bilan bosiladi, qopqog‘i oldinga bosh barmoq bilan bosib itariladi va olinadi (35-rasm).



35-rasm. O‘qdon qopqog‘ining ajratilishi.


2. Prujinasi bilan uzatkich o‘qdondan asta-sekin chiqariladi (36-rasm).



*36-rasm. O‘qdon prujinasining ajratilishi.*

“Glock-17” pistoleti o‘qdonini qayta yig‘ish quyidagicha amalga oshiriladi.


1. O‘qdonning prujinasi uzatkich tomoni bilan o‘qdonga joylashtiriladi va bosh barmoq bilan oxirigacha bosib turiladi (37-rasm).



*37-rasm. O‘qdon uzatkichi bilan prujinasining joylashtirilishi.*



2. O‘qdon ostki qopqog‘i qulfiga joylashtiriladi (38-rasm).



38-rasm. O‘qdon qopqog‘ini qulfiga joylashtirish.

### **“Glock-17” pistoletiga xizmat ko‘rsatish**

Pistoletning doimo toza va jangovar holatga shay bo‘lishiga uni o‘z vaqtida tozalash, moylash, to‘g‘ri saqlash va u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish orqali erishiladi.

Jangovar pistoletni to‘liq qismlarga ko‘p ajratib yig‘ish tavsiya etilmaydi, chunki bunda pistoletning qism va mexanizmlari ishdan chiqishi mumkin.

Har bir xodim o‘ziga biriktirilgan pistoletni quyidagi vaqtlarda tozalab turishi shart:

- xizmatda foydalangan vaqtda;
- jangovar vaziyatlarda, xizmat safarlarida va uzoq vaqt davom etuvchi o‘quv mashqlarida;
- har kuni, jang to‘xtagan vaqtda yoki mashg‘ulotlar oralig‘idagi tanaffuslarda;
- naryadlardan, o‘q otish tayyorgarligi mashqlaridan va dala mashg‘ulotlaridan keyin;
- otishdan keyin, o‘q otish tugashi bilan (o‘q otish maydonida, tirda, dalada).

Agarda pistolet ishlatilmayotgan bo'lsa, har yetti kunda bir marta tozalanishi shart.

Yaxshilab tozalangan yuzaga namlik ta'sir etib ulgurmasidan zudlik bilan moy surtiladi.

Pistoletlarni tozalash maxsus jihozlangan stollarda, jangovar va yurish vaziyatlarida esa toza matoda, fanerda, taxtada amalga oshiriladi.

Pistoletning stvolida va boshqa qismlarida porox gazlarining ta'siridan hosil bo'lgan qurumlarni bartaraf etish yoki yumshatish uchun quyidagi mato va moylardan foydalaniladi:

o'qotar qurollarni tozalash moyi – pistoletning hamma metall qismlarini moylash uchun mo'ljallangan bo'lib, bu moy pistolet qismlari va mexanizmlarining  $+5^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lmagan haroratda ishlashini ta'minlaydi;

21 raqamli qishki moy – pistolet qismlarini qishda moylash uchun mo'ljallangan bo'lib, bu moy –  $40^{\circ}\text{C}$  sovuqlikgacha pistolet qismlari va mexanizmlarining ishlashini ta'minlaydi;

zambarak moyi – uzoq muddatga omborda saqlashga topshirilayotgan pistoletlarni moylash uchun mo'ljallangan;

toza paxta matoli latta – pistolet qismlarini artish, tozalash va moylash uchun; shuningdek, kanop tolasi – stvol kanalini tozalash uchun mo'ljallangan.

Pistoletni tozalashda quyidagilar bajariladi:

zatvor, turtkich mexanizmi, uloqtirgich va uloqtirgichni itaruvchi mexanizmni tozalashda, latta bilan iflos va namlikdan toza bo'lguncha quruq qilib artiladi. Zanglar moy qorishmasi shimdirilgan latta yordamida tozalanadi. Zatvordagi botiqlarni, uyalarni va teshiklarni tozalashda yog'och cho'plar qo'llaniladi;

stvolni tozalashda, materialga moy qorishmasi shimdiriladi va shompol yordamida stvol kanalining oldingi qismidan kiritilib, bir necha marta uni stvol kanali bo'ylab oldinga va orqaga harakatlantiriladi. Tozalash materiali yangilanib, tozalash takrorlanadi. Keyin stvol kanali quruq qilib artiladi. Latta ko'zdan kechiriladi, agar unda qurum yoki zang izlari bo'lsa, stvol kanali toza bo'lguncha

tozalash davom ettiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan usulda stvoldagi o'qdon ham tozalanadi. Tozalab bo'linganidan keyin stvol kanali va stvol o'qdoni yorug'likka tutib, ko'zdan kechiriladi;

qaytaruvchi prujinani tozalashda, latta bilan iflos va namlikdan toza bo'lguncha quruq qilib artiladi. Zanglar moy qorishmasi shimdirilgan latta yordamida tozalanadi.

Pistoletning asosiy ramasi, qo'l dastagi, bloklab beruvchi moslama, zatvor tutkichi va tepki halqa mexanizmini tozalashda, latta bilan iflos va namlikdan toza bo'lguncha quruq qilib artiladi. Zanglar moy qorishmasi shimdirilgan latta yordamida tozalanadi. Asosdagi botiqlarni, uyalarni va teshiklarni tozalashda, yog'och cho'plar qo'llaniladi;

o'qdonni tozalash. Naryaddan va mashg'ulotdan keyin o'qdon yig'ilgan holda, otishdan keyin va yomg'irda qolganda yoki kuchli ifloslanganda esa qismlarga ajratgan holda tozalanadi.

Pistoletning barcha qismlari va mexanizmlarini tozalashda, moy yupqa qilib surilishi lozim. Ortiqcha moylash pistolet qismlarining ifloslanishiga va uning ishlash vaqtidagi to'xtalishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Pistolet tozalangandan keyin yig'iladi va qismlari hamda mexanizmlarining ishlashi tekshirib ko'riladi.

Pistoletni qishki moylashga o'tkazishda miltiq moyidan to'liq tozalanadi.

Sovuqdan issiq xonaga olib kirilgan pistolet moylanmaydi, balki u terlaganidan keyin qismlari va mexanizmlari quruq qilib artiladi va moylanadi.

Uzoq muddatga saqlash uchun topshirilayotgan pistolet to'liq tozalanishi va zambarak moyi yoki 50% zambarak va 50% miltiq moyi aralashmasi bilan qalin qilib moylanishi zarur.

### ***Pistoletni saqlash va olib yurish tartibi***

Xodimlarning xizmat faoliyati davomida o'qotar qurolni olib yurish, saqlash tartibi va muddatlari ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari asosida belgilanadi.

Hududdagi tezkor va kriminogen vaziyatni inobatga olib, ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan xodimga o'qotar qurolni doimiy olib yurish va saqlashga ruxsat etilishi mumkin.

O'qotar qurol xodimlarga ularning shaxsiy javobgarligi ostida beriladi.

Pistoletlar g'iloflarda, tasmasi taqilgan holatda olib yuriladi.

O'qotar qurolni doimiy olib yurish va saqlashga ehtiyoj bo'lmaganda, o'qotar qurol ichki ishlar organlari navbatchilik qismiga yoki omboriga topshiriladi.

Pistoletlar maxsus qo'riqlash vositalari bilan ta'minlangan, navbatchilik qismi yaqinida joylashgan, har doim kuzatuv ostida bo'lgan, temir panjaralar o'rnatilgan, havo harorati saqlangan xonadagi temir qutilarda g'ilofdan chiqarilgan va o'qdonlardan ajratilgan holda saqlanishi kerak. Pistolet g'ilofini va uskunalarini saqlash pistolet biriktirilgan xodimga yuklatiladi.

Qisqa muddat aholi punktlarida, xonadonlarda yashaganda pistolet imkon qadar yaqinda joylashgan IIBga topshirilishi kerak, agar buning imkoni bo'lmasa, qurol xodimning o'zida saqlanadi. Dala mashg'ulotlarida, yurishda yoki mashinada ketayotganda, pistolet g'ilofda olib yuriladi.

Issiq hududlarda havoda chang bo'lganda, shuningdek, havo namligi kuchli hududlarda pistolet maxsus ko'rsatmaga binoan saqlanadi.

Pistoletga turg'un kimyoviy zaharlanish vositalari ta'sir etganda, uni degazatsiya qilish ichki ishlar organlari kimyoviy xizmatining maxsus ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi.

### III BOB. “GLOCK-17” PISTOLETIDAN OTILADIGAN 9X19 MMLI LYUGER PATRONLARI VA UNDAN OTISH

#### “Glock-17” pistoletidan otiladigan 9x19 mmlı lyuger patronlari

O‘qotar qurol ishlab chiqaruvchi Lyuger kompaniyasining asoschisi Georg Iogani Lyuger 1849-yil 6-martda tug‘ilgan.

Maktabni tugatgandan so‘ng Vena harbiy akademiyasini tamomladi. U Luger to‘pponchasi va 9×19 mmlı Parabelli patronini yaratdi.



Aslida, bu patron 7,65×21 mm Parabelli kalibrli patronning qisqartirilgan gilzasidan iborat bo‘lib, halqasimon trubkaga ega. Shisha o‘rniga gilza silindrsimon shaklga ega bo‘ldi, katta konus deyarli sezilmay qoldi. Gilza 9 mm o‘q bilan bilan ulangan.

O‘qning asl nusxasi konus shakliga ega bo‘lib, bu o‘qning o‘qdonga joylashishida muammolarga olib kelgan. 1915 yilda o‘qning yangi versiyasi oqival bosh qismi bilan ishlab chiqarila boshlandi. O‘qning dastlab korpusi Melchior po‘lati bilan qoplangan va qo‘rg‘oshin yadrosiga ega edi. 1917 yildan beri o‘qning po‘lat qobig‘i tombas bilan qoplangan.


2000-yillarda dunyodagi ko‘p mamlakatlarning kuch ishlatar tuzilmalarida yangi 9×19 mm patronilarga o‘tishga qaror qilindi. Yangi qurol modellari uchun ballistik va taktik-texnik xususiyatlari yaxshilangan patronning yangi modifikatsiyalari ishlab chiqildi (39-rasm).



39 rasm. 9x19 mmlı Lyuger patroni.

9x19 mmlı Lyuger patroni qisqa stvolli o‘qotar qurollar – pistolet va revolverlar uchun mo‘ljallangan.

9×19 mmli Lyuger patronining Parabelli o'lchami quyidagi chizmada ko'rsatilgan (40-rasm).



40-rasm. 9×19 mmli Lyuger patronining Parabelli o'lchami.

### 9×19 mmli Lyuger patronining taktik-texnik xususiyatlari


#### O'qning parametrlari

O'qning uzunligi	19,69 mm
O'qning kalibri	9,01 mm
O'qning og'irligi	7,45 gr
Boshlang'ich uchish tezligi	350–380 m/s
O'qning energiyasi	480–617 Dj

#### Gilzaning parametrlari

Gilzaning uzunligi	19,15 mm
Gilzaning diametri	9,65 mm
Gilza asosining diametri	9,93 mm
Gilza flansining uzunligi	9,96 mm

9×19 mmli Lyuger patronining qismlari o‘q, gilza, porox zaryadi, o‘qning zakrinasi va alangalovchi kapsyuladan iborat (41-rasm).



41-rasm. 9×19 mmli Lyuger patronining qismlari.

*O‘q* – po‘lat va mis qobiqli, qo‘rg‘oshinli qoplama va po‘lat o‘zakdan iborat. O‘q gilzaga siqib kiritish orqali o‘rnatiladi.

*Gilza* – poroxli zaryadni joylashtirish va patronning hamma qismlarini birlashtirish uchun xizmat qiladi. U poroxli zaryadni va pistonni tashqi ta’sirlardan himoya qiladi va otish vaqtida stvol kanalidan patron don orqali gazlarning orqaga harakatlanish yo‘lini yopib turadi.

*Gilza tubida* – alangalovchi kapsyula, pistonni turtkich zarbasidan keyin teshuvchi sandon, piston tarkibi yonganidan so‘ng uning alangasi poroxli zaryadga o‘tadigan ikkita teshik mavjud. Gilza tubining tashqi qismida uloqtirgich tishchasi (ilgagi) kirishi uchun aylana ariqcha mavjud.

*Poroxli zaryad* – tutunsiz piroksilinli poroxdan iborat.

*Alangalovchi kapsyula* – poroxli zaryadni yondirish uchun xizmat qiladi.

*Piston* jezli qalpoqchadan, unga zichlab solingan zarbli tarkibdan va zarbli tarkibni berkitib turadigan qalayli qoplamadan tashkil topgan.

## **“Glock-17” pistoleti o‘qdoniga patronlarni joylashtirish va otish usullari**

Ichki ishlar organlari xodimlari maxsus operatsiyalarni amalga oshirishda barcha harakatlar tez va aniq bo‘lishi uchun doimiy ravishda o‘z ustida ishlashlari kerak. Ya’ni, har bir harakat o‘quv mashg‘ulotlarida qayta-qayta bajarilsa, odamning xotirasida reflektor darajasida aks ettirilib, motorik xususiyatlari kundan-kunga rivojlanib boradi. Shuning uchun amaliy mashg‘ulotlarda me’yorlar doimiy ravishda bajarilib, uning ko‘rsatkichlari darsdan-darsga o‘sib borishi lozim.

O‘qdonga patronlarni joylashtirish ham shular qatorida alohida ahamiyatga ega. Tasavvur qiling, jang paytida o‘qdonlarda patronlar tugab qolgan, sizga aynan shu vaqtda hujum bo‘lib, “Glock-17” pistoletini qo‘llash zaruriyati tug‘ilgan. Albatta, agar xodim o‘zini yo‘qotib qo‘yib, harakatlari sekin va noaniq bo‘lsa, bu vaziyatdan chiqish ketish nasib qilmasligi ham mumkin. Shu sabab, aynan shu me’yorni bajarish jarayonida otuvchi birinchi va ikkinchi marotaba o‘qdon hamda patronlarga qaragan holda bajaradi, keyinchalik esa motorik reflekslarini rivojlantirish maqsadida shu xarakterlarni qaramasdan bajarishi lozim. Nigoh esa raqib tomonga yo‘naltirilib, vaziyatni kuzatib borishi kerak.

### ***Patronlarni ikki qatorli o‘qdonga joylashtirish***

1. O‘qdon chap qo‘lda ushlab turiladi, patron o‘ng qo‘lga olinadi va o‘qdon ustining og‘iz qismiga patron orqa tomoni bilan keltiriladi. O‘qdonning og‘iz qismidagi ariqcha bo‘ylab patron o‘qdonga kiritiladi. Patronning old tomoni o‘qdonning old tomoniga qaratilgan bo‘lishi lozim (*42-rasm*).

2. Ikkinchi va keyingi patronlar o‘qdonga birinchi joylashtirilgan patronning ustiga ketma-ket keltiriladi va ariqcha bo‘ylab yo‘naltiriladi (*43-rasm*).

3. “Glock-17” pistoletining ikki qatorli o‘qdoni orqasida o‘qlarning to‘liq yoki noto‘liq joylashtirilganligini bilish uchun ikki qatorli teshikchalar mavjud (*44-rasm*).



4. O'qdon qo'l dastagiga o'rnatiladi (45-rasm).



*42-rasm. Patronning o'qdonga joylashtirilishi.*



*43-rasm. O'qdonga joylashtirilgan patron.*





*44-rasm. Patronning o'qdonga joylashtirilganini ko'rish.*



*45-rasm. O'qdonning qo'l dastagiga o'rnatilishi.*

## ***“Glock-17” pistoletidan o‘q otish usullari***

Pistoletdan amaliy o‘q otish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- bir qo‘lda yoki ikki qo‘lda;
- tik turgan holatda;
- tizzalagan yoki o‘tirgan holatda;
- yerga yotib, tirsakka tayangan holatda.

O‘q otishning barcha usullaridan foydalanib, tez va qisqa muddatlarda nishonni ko‘zdan qochirmasdan amalga oshirish zarur.

Pistoletdan o‘q otish quyidagi harakatlardan iborat:

- o‘q otishga tayyorlanish (pistoletni o‘qlash, o‘q otish holatini egallash);
- o‘q otishni amalga oshirish (nishonni mo‘ljalga olish, nafas olib, nafasni ushlab turish va tepki halqasini ko‘rsatkich barmog‘ining birinchi bo‘g‘ini bilan mayinlikda bosish);
- o‘q otishni tugallash (teпки halqasiga bosishni to‘xtatish, pistoletni o‘qsizlantirish).

Nishonni aniq zabt etish uchun har bir o‘q otuvchi individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘ziga qulay holatni egallaydi.

### **“Glock-17” pistoletini o‘qlash, nishonga olish va otish**

1. Yuqorida (*21–22-rasmlarda*) ko‘rsatilgan tartibda o‘qlar birin-ketin o‘qdonga va u pistoletning qo‘l dastagiga joylashtiriladi, bunda ko‘rsatkich barmoq tepki halqasining tashqarisida turadi.

2. O‘qdon joylashtirilganidan so‘ng pistolet xavfsiz tomonga yo‘naltiriladi, o‘ng qo‘lda qo‘l dastagidan ushlanadi, ko‘rsatkich barmoq tepki halqasidan chiqarilgan holatda, chap qo‘l bilan zatvor tortib qo‘yib yuboriladi (*8-rasm*) va patron patrondonga joylashadi, pistolet o‘q otish uchun tayyor (*46-rasm*).



*46-rasm. Zatvorning orqaga tortilishi va patronning patrondonga joylashuvi.*

3. Pistolet nishonga yo‘naltiriladi, ko‘rsatkich barmoq tepki halqasiga qo‘yiladi, nishon aniq ko‘zlanganligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng tepki halqasi har bir o‘qni otish uchun bosiladi (47-rasm).



*47-rasm. O‘q otilishi.*


Ma‘lumki, “Glock-17” pistoletining mexanik saqlagichi yo‘q, uning afzalligi shundaki, tepki mexanizmi uchta avtomatik saqlagichdan iborat. Uning tizimiga quyidagi saqlagichlar kiradi (48-rasm):

1-tepki halqasining saqlagichi;




2-turtkichning oldinga harakatlanishini bloklab turuvchi porshen shakldagi saqlagich;

3-turtkichning orqa tomonida plyus ko‘rinishidagi saqlagich.




*48-rasm. Avtomatik saqlagichlarning joylashuvi.*

Birinchi saqlagich qurol otilib ketishining oldini olish uchun tepki halqasida joylashgan. Agar saqlagich ochilmagan bo‘lsa, tepki halqasi ishlamaydi. Saqlagich ochilsa, tepki halqasiga pistolet asosiy ramasi erkin harakatlanishi uchun imkon beradi (49-rasm).




*49-rasm. Tepki halqasida joylashgan birinchi saqlagich.*

Ikkinchi saqlagich turtkichni ushlab turish uchun mo'ljallangan bo'lib, tepki halqasi bosilgandan so'ng qo'yib yuboruvchi skoba saqlagichni yuqoriga ko'tarib beradi va turtkich uchun yo'l ochiladi (50-rasm).



50-rasm. Turtkichni ushlab turuvchi ikkinchi saqlagich.

Uchinchi saqlagich plyus shaklda bo'lib, turtkich orqasida joylashagan. Turtkich oldinga harakatlanish uchun qo'yib yuboruvchi skoba orqaga harakatlanib, turtkichda joylashgan saqlagich xonasini bo'shatib, turtkichga harakat uchun yo'l ochib beradi (51-rasm).



51-rasm. Turtkich orqasida joylashagan plyus shakldagi uchinchi saqlagich.


Turtkich oldinga harakatlanib, patronlarda joylashgan patronning alanganuvchi kapsyulasiga zarba beradi, natijada porox zarayadining kengayuvchi gazlari o'qni stvol kanalidan kuchli bosim bilan itarib chiqaradi (52-rasm).




*52-rasm. Turtkichning alanganuvchi kapsyulaga zarba berishi, porox zarayadining kengayuvchi gazlari o'qni stvol kanalidan kuchli bosim bilan itarib chiqarishi.*

### ***“Glock-17” pistoletidan nishonni mo'ljalga olish va o'q otish***

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolarga va o'zining hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar yuzaga kelganda, to'g'ri qaror qabul qilishi va o'qotar qurolni qo'llashga majbur bo'lganda, ruhan tayyor turishi, tezkorlik bilan harakat qilishi kerak. Buning uchun doimiy amaliy mashqlarni bajarishi va ko'nikmalarni avtomatizmgacha shakllantirishi shart. Ya'ni, qurolni tezlik bilan chiqarish va uni qo'llash uchun tayyor bo'lish nazarda tutiladi (53–44 rasmlar).



*53-rasm. Qurolni qo'llash uchun tayyorgarlik.*



1. To'siqsiz.
2. Muvozanatni saqlash uchun oyoqlar yelka kengligida qo'yiladi.
3. Tana oldinga agressiv egiladi va og'irlik markazga jamlanadi.
4. Ko'rsatuvchi barmoq tepki halqasining yonida joylashtiriladi
5. Chap qo'l o'ng qo'l barmoqlari ustidan qo'yiladi.
6. Tana 90° da o'q otish chizig'i bilan nishonga qaratiladi

*54-rasm. O'q otish uchun yuqori tayyorgarlik*

### ***Nishonga olish***

Boshqaruvchi ko'z bilan mo'ljalga oling. Ikkala ko'z bilan nishonga olish deyarli mumkin emasligi sababli, siz boshqaruvchi ko'z bilan nishonga olishingiz kerak. Uning yordamida siz nishonni ancha yaxshi ko'rasiz (55-rasm).



*55-rasm. Boshqaruvchi ko'z bilan nishonga olish.*


Aksariyat odamlarning boshqaruvchi ko'zi boshqaruvchi qo'li bilan bir tomonda bo'ladi. Qaysi ko'zingiz boshqaruvchi ekanligini aniqlash uchun bosh



barmog'ingizni va ko'rsatkich barmog'ingizni halqasimon qilib bir-biriga birlashtiring. Keyin qo'lingizni uzating va halqa orqali biron bir predmetga qarang.


Asta-sekin halqani yuzingizga yaqinlashtiring, ikkala ko'zingizni ochiq tuting, lekin unga qaramang. Natijada siz qo'lingizni boshqaruvchi ko'zingizga olib kelasiz.

Nishonga olayotganda, pistoletning ko'zlagichi bilan mushkani bir qatorda tuting (56-rasm).



*56-rasm. Ko'zlagich bilan mushkani bir qatorda tutish.*


Ko'zlagich bilan mushka burchaklarining siljishi xatoliklarga olib keladi. Buni o'qning nishonga tegishidan aniqlasa bo'ladi (57-rasm).



*57 rasm. Ko'zlagich bilan mushkani nishonga olish.*

Mo'ljalga olganingizda, mushka ko'zlagichning ikki cheti o'rtasidagi aniq markazda bo'lish kerak. Mushka bilan ko'zlagichning ikki chekasidagi masofani bir xil oling, ya'ni mushkaning tepa qismi ko'zlagichning tepa chetlari bilan bir tekisda bo'lish kerak. Noto'g'ri nishonga olsangiz, aniq tekkiza olmaysiz.

Halqa tepkisini bosishdan oldin ozgina nafas olib to'xtating, nishonni aniq ko'zlab, keyin tepki halqasini bosing. Nafasni ozgina ushlab tursangiz, nishonni aniq zabt etasiz. Agar nafas olayotganda yoki chiqarayotganda yoxud to'liq chiqarib tashlab, tepki halqasini bossangiz, o'qning nishonga tegmay qolish ehtimoli yuqori (58-rasm).




**58-rasm.** Nafasni ushlab turganda, nafas chiqarib yuborilganda nishonlarning ko'rinishi.

Nishonda mo'ljal joyini aniqlang. To'g'ridan-to'g'ri nishonning markazini mo'ljalga oling. Buni amalga oshirish uchun oldingi ko'rinishning yuqori qismini mos ravishda markazlashtirishingiz kerak. Old ko'rinishning yuqori qismidagi chiziq ham nishon markazining gorizontaal chizig'iga to'g'ri kelishi kerak. Siz to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvchi ko'z bilan nishonga olishingiz lozim (56-rasm chap tomonidam ko'rsatilgan).

O'q otishda sabr-toqatli bo'lishingiz kerak. Diqqatingizni jamlab oling va nishonga qarab o't oching. Agar diqqatingizni jamlamasangiz, nishonga tekkiza olmasligingiz mumkin.

O‘q otishdan oldin ko‘zlagich bilan mushkaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qiling. Shoshilmang va xotirjam bo‘ling. Agar hayajonlanib, tepki halqasiga qattiq bosib yuborsangiz, nishonni yo‘qotib, tekkiza olmaysiz.

Nafasni rostlab, ko‘zlagich bilan mushkaning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilganizdan so‘ng tepki halqasini ko‘rsatkich barmoqning birinchi bo‘g‘ini o‘rtasi bilan bosing. Agar ko‘rsatkich barmoqning birinchi bo‘g‘ini old chekkasi yoki oxiri bilan bossangiz, pistoletni chapga yoki o‘nga olib qochadi (59-rasm).



*59-rasm. Ko‘rsatkich barmoq bilan tepki halqasining bosilishi.*

Ko‘zlagich va nishon to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, tislaniş qo‘lingizni tepaga yoki pastga yo‘naltirishi mumkin. Agar qurolni to‘g‘ri ushlasangiz xatoliklar ehtimoli kamayadi. Bunday holatlarda qo‘lingizning yo‘naltirilishiga qarab, mo‘ljalni ozgina tepaga yoki pastga olishga harakat qiling. O‘q otilishida tislanişni xayolingizga keltirmang va o‘q otilishini kuzatib boring.

Pistoletni noto‘g‘ri ushlash ham xatoliklarga olib keladi:

1. O‘ng qo‘lingizni pistolet qo‘l dastagining o‘ng tomoniga iloji boricha yuqoriroq tirab qo‘ying, uchta barmog‘ingiz skobaning tagida, ko‘rsatkich barmoq tepki halqasida, bosh barmoq pistoletning chap tomonidan oldinga yo‘naltirilgan holatda pistolet asosiy ramasiga tegib turish kerak (60-rasm).

2. Chap qo'lingizning kaftini pistolet qo'l dastagining chap tomoniga qo'ying (61-rasm).

3. To'rtta barmog'ingizni skoba tagidan o'ng barmoqlaringiz ustiga qo'ying, bosh barmog'ingizni o'ng qo'l bosh barmog'iga tekkizib, oldinga yo'naltirilgan holda, pistoletning asosiy ramasiga tekkizib qo'ying (62-rasm), tirsagingizni 45°ga buking.



*60-rasm. Pistoletni bir qo'l bilan ushlash holati.*



*61-rasm. Chap qo'lining kaftini pistoletga qo'yish holati.*





*62-rasm. Pistoletni ikki qo'l bilan ushlash.*

### ***Ogohlantirishlar***

Qurolni xavfsiz tomonga yo'naltirilgan holda ushlang. Hech kimga shikast yetkazmaslik uchun qurol odamlarga qaratilmagan bo'lishi kerak. Agar siz o'q otish maydonida bo'lsangiz, qurolni nishon tomonga qaratib, ushlab turing.

Qurolingiz o'qlanmagan bo'lsa ham, uni o'qlangan deb hisoblang. Bu har qanday fojيانing oldini oladi.

Siz nishoninigiz qayerda ekanligini, shuningdek, uning atrofini va undan tashqaridagi butun maydonni aniq ko'rishingiz kerak. Barcha ehtiyot choralarini bilishingiz va o'q otish chizig'idan hech kim o'tmaganligiga ishonch hosil qilishingiz kerak.

Ko'rsatkich barmog'ingizni har qanday holatda va otishdan oldin ham, doim skobada uzatilgan holatda ushlang (*63-rasm*).



*63-rasm. Barmog'ni skobadan tashqarida ushlash.*

## VI BOB. “GLOCK-17” PISTOLETINI QO‘LLASH SHARTLARI VA HUQUQLARI

*Ichki ishlar organlari xodimi “Glock-17” pistoletini olib yurish, saqlash va qo‘llash uchun “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 5-bobi 21 va 24-moddalarini yoddan bilishi shart.*

### **21-modda. Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash shartlari**

Ichki ishlar organi xodimi o‘ziga birlashtirilgan o‘qotar qurol va maxsus vositalarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida olib yurish, saqlash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash huquqiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ega bo‘ladi.

Ichki ishlar organi xodimi maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek, jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini tekshirish uchun davriy tekshiruvdan o‘tishi shart. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodimga tegishli sertifikat beriladi.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini aniqlash bo‘yicha tekshiruvdan o‘ta olmagan ichki ishlar organi xodimi egallab turgan lavozimga muvofiqligini aniqlash uchun attestatsiyadan o‘tadi.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishidan avval ularni qo‘llash niyati to‘g‘risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo‘lishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo‘lmagan yoxud ularning qo‘llanilishini kechiktirish fuqarolarning va ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan hamda boshqa og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar mustasno.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-harakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunda ichki ishlar organi xodimi har qanday zararning imkon qadar kam bo‘lishiga intilishi shart.

Ichki ishlar organi xodimi, agar yuzaga kelgan vaziyatda maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun mazkur moddada hamda ushbu Qonunning 23 va 24-moddalarida nazarda tutilgan asoslar vujudga kelishi mumkin deb hisoblasa, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun tayyorlash hamda ularni jangovar holatga keltirish huquqiga ega.

Jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilganligi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatilishi, shuningdek, imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rilishi, ularning qarindoshlari esa yigirma to'rt soat ichida bu haqda xabardor qilinishi kerak.

Jismoniy kuch ishlatilgan, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilgan har bir holat to'g'risida ichki ishlar organining xodimi bevosita boshlig'iga darhol axborot berishi shart.

Jismoniy kuch ishlatilganligi va maxsus vositalar qo'llanilganligi natijasida jismoniy yoxud yuridik shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat haqida, shuningdek, o'qotar qurol qo'llanilgan barcha hollar to'g'risida ichki ishlar organlari prokurorga darhol xabar beradi.

Ichki ishlar organi xodimining jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash chog'ida o'z vakolatlari doirasidan chiqqanligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash qonunda belgilangan asoslar bo'yicha va tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash chog'ida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

Agar ichki ishlar organi xodimi tomonidan jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilganligi natijasida fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoxud u halok bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi hodisa joyini o'zgarishsiz saqlashga qaratilgan choralarni ko'rishi shart.

## **24-modda. O'qotar qurolni qo'llash huquqlari**

Ichki ishlar organi xodimi quyidagi hollarda o'qotar qurolni qo'llash huquqiga ega:

fuqarolarni yoxud o'zini hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan himoya qilishda;

garovdagilarni ozod qilishda;

o'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkoni bo'lmasa;

ichki ishlar organlarining o'qotar qurollarini, o'q-dorilarini, portlovchi moddalarini, transport vositalarini, maxsus va jangovar texnikasini egallab olishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;

fuqarolarning uy-joylariga, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qo'riqlanadigan obyektlariga, o'ta muhim yuklariga, transport vositalariga, binolariga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etishda;

qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek yonidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;

jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o'ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo'yishda, shuningdek, ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;

agar transport vositasining haydovchisi fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'dirsa hamda ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablariga qaramay, to'xtashdan bosh tortsa, ushbu transport vositasini shikastlash yo'li bilan to'xtatishda;

insonning hayoti va sog'lig'iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda;



qurol ishlatish niyati haqida ogohlantirish sifatida o'q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordamga chaqirishda.

Ichki ishlar organining xodimi o'qotar qurolni qo'llashdan oldin ogohlantirishi shart, bundan uning hayotiga yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tahdid solayotgan hollar mustasno.

Ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan o'qotar qurolni qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli hujum qilganligi, qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

O'qotar qurol qo'llanilishi natijasida tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi ko'p fuqarolar to'planganda uni qo'llash huquqiga ega emas.

Ichki ishlar organlari qurollantiriladigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari turlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu ro'yxatga kirmaydigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari bilan ichki ishlar organlarini qurollantirish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

## XULOSA

Mazkur qo'llanmada "Glock-17" pistoletining yaratilishi, uning xususiyatlari, qismlari va mexanizmlari, taktik-texnik tavsniifi, uni qismlarga ajratish va qayta yig'ish, unga xizmat ko'rsatish, pistoletdan otishda qo'llaniladigan 9x19 *mm*li Lyuger patronlarining kelib chiqishi, tuzilishi, o'qdoniga patronlarni to'g'ri joylashtirish, o'q otish usullari, mo'ljalga olish kabi masalalar yoritilgan.

Qo'llanmaning asosiy maqsadi "Glock-17" pistoletidan o'q otishning eng samarali usullarini o'rgatishdir. Umid qilamizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ushbu usul va uslublarni o'z amaliy faoliyatida muvaffaqiyatli ravishda qo'llaydilar.

Bugungi kunda boshlang'ich tayyorgarlik va maxsus kasbiy tayyorgarlik o'quv kurslarida tahsil olayotgan tinglovchilarning ushbu qo'llanmada ko'rsatib o'tilgan usul va vositalarni o'zlashtirib olishlari kelgusida "Glok-17" pistoletidan xizmat faoliyatida foydalanishlarida yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Ishonamizki, ichki ishlar organlari xodimlari "Glock-17" pistoletidan otish mashqlarini bajarganda mazkur qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar asosida o'z bilimlarini yanada boyitadilar. Mazkur ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirish esa huquq-tartibot, qonuniylikni mustahkamlashda, fuqarolarning, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlarining hayoti va sog'ligini asrashga yordam beradi.

Ushbu qo'llanma xizmatdagi xodimlarga ishonib topshirilgan qurollardan to'g'ri foydalanishda qo'l keladi, degan umiddamiz.

Kelajakda shu kabi zamonaviy qurollardan o'q otish buyicha qo'llanma tayyorlash va ularni nashr etishni maqsad qilib qo'yganmiz. Binobarin, Mazkur qo'llanmadan foydalanish chog'ida kitobxonlarda qo'llanmani takomillashtirish to'g'risida fikr-mulohazalar tug'ilsa, biz ulardan zamonaviy qurollardan otishning usul va vositalarini yanada maqbullashtirish bo'yicha olib boradigan keyingi ishlarimizda foydalanamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2015-yil 6-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish», to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 55-sonli buyrug‘i.
4. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 15-martdagi “Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi 55-sonli buyrug‘i
5. Плешков А.В. Методические рекомендации по проведению практического занятия по разделу «Огневой подготовке» программы профессионального обучения (профессиональной подготовки) лиц рядового и младшего начальствующего состава, впервые принимаемых на службу в органы внутренних дел. – Нижний Новгород, 2015.
6. Петров А.И. Скоростная стрельба из индивидуального оружия: Учебно-методическое пособие по скоростной стрельбе из автомата и пистолета. – Челябинск, 2009.
7. Shohakimov M.G‘., Xaydarov R.A. Kalashnikov avtomatidan amaliy o‘q otish tartibi va qoidalari: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2017.
8. Shohakimov M.G‘., Sarbov J.T. Zamonaviy o‘qotar qurollar haqida tushuncha: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2018.
9. Alijonov A.T. O‘q otish tayyorgarligi va o‘qotar qurollar: O‘quv qo‘llanma. – T.: IIV Malaka oshirish instituti, 2022.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. “GLOCK-17” PISTOLETINING YARATILISHI, JANGOVAR XUSUSIYATLARI, ASOSIY QISMLARI VA MEXANIZMLARI</b>	
“Glock-17” pistoletining yaratilishi .....	6
“Glock-17” pistoletining jangovar xususiyatlari .....	8
“Glock-17” pistoletining asosiy qism va mexanizmlari.....	11
<b>II BOB. “GLOCK-17” PISTOLETINI QISMLARGA AJRATISH VA QAYTA YIG‘ISH, UNGA XIZMAT KO‘RSATISH</b>	
“Glock-17” pistoletini qismlarga ajratish va qayta yig‘ish.....	14
“Glock-17” pistoletiga xizmat ko‘rsatish.....	33
<b>III BOB. “GLOCK-17” PISTOLETIDAN OTILADIGAN 9X19 MMLI LYUGER PATRONLARI VA UNDAN OTISH</b>	
“Glock-17” pistoletidan otiladigan 9x19 <i>mml</i> Lyuger patronlari.....	38
“Glock-17” pistoleti o‘qdoniga patronlarni joylashtirish va otish usullari ....	41
“Glock-17” pistoletini o‘qlash, nishonga olish va otish .....	44
<b>IV BOB. “GLOCK-17” PISTOLETINI QO‘LLASH SHARTLARI VA HUQUQLARI</b>	
Ichki ishlar orgalari xodimlarining o‘qotar qurollarini qo‘llash shartlari va huquqlari.....	54
<b>XULOSA .....</b>	<b>58</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>59</b>



**AKRAMBAYEV XASAN MAMADJANOVICH**

**“GLOSK 17” PISTOLETIDAN AMALIY  
O‘Q OTISH TARTIBI VA QOIDALARI**

*O‘quv-uslubiy qo‘llanma*

---

Bosishga ruxsat etildi \_\_\_\_\_2024-y. Nashriyot hisob tabag‘i \_\_\_\_\_  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_\_

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,  
100213, Toshkent shahri H. Bayqaro ko‘chasi, 27<sup>a</sup>-uy.